

"G'AROYIB US-SIG'AR"DAGI ARABIY MISRALI G'AZALLAR

Malikov Akrom Abduxamidovich

*tayanch doktorant Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili adabiyoti
universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrası
akrommalik@hotmail.com*

Annotasiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi g'azallarda arabiy misralarning ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif dastavval Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir muhim nuqtalarga to'xtalar ekan, arab tili Alisher Navoiy ijodida qay tariqa namoyon bo'lishi haqida tahlil olib borgan va Alisher Navoiy asarlaridan bir qancha iqtiboslar taqdim etgan. Shuningdek, "Lison ut-tayr" dostonida keltirilgan Asma'iy ishtirokidagi hikoyatni zikr qilib o'tgan. "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi arabiy misralari bo'lgan g'azallarni o'rgangan.

Muallif tadqiqotni birlamchi manbalar asosida shakllantirgan, shuningdek, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalangan.

Kalit so'zlar: Arab tili, navoiyshunoslik, kulliyot, devon, masnaviy, g'azal, misra, hikoyat, qiyosiy tahlil, kontekstual tahlil.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение арабских стихов в газелях книги Алишера Навои «Гараиб ус-сигар». Автор впервые затронул важные моменты жизни и творчества Алишера Навои, проанализировал появление арабского языка в творчестве Алишера Навои, привел несколько цитат из произведений Алишера Навои. Он также упомянул историю с участием Асмаи в эпосе «Лисон ут-Таир». Он изучал газели с арабскими стихами из книги «Гараиб ус-сигар».

Исследование автора основано на оригинальных источниках и использует методы сравнительного и контекстуального анализа.

Ключевые слова: Арабский язык, навоиведение, куллият, диван, маснави, газел, мисра, хикаят, сравнительный анализ, контекстуальный анализ.

Abstract. The article delves into the significance of Arabic verses within Alisher Navoi's collection of poems, "Gharaib al-sighar". Initially, the author presents crucial information regarding Alisher Navoi's life and body of work, while analyzing the presence and impact of the Arabic language in his poetry. Additionally, the author references specific examples from Navoi's works to support his analysis. He also shed light on the narrative involving Asma'i, a renowned Arabic poet, as depicted in "Lison al-tayr". Furthermore, the author scrutinizes the ghazals from "Gharaib al-sighar" that incorporate Arabic verses. His article is meticulously crafted, drawing from primary sources and employing methods of comparative and contextual analysis.



Key words: *Arabic language, Navoi studies, kulliyat, deewan, mathnawi, ghazal, misraa, hikayat, comparative analysis, contextual analysis.*

Kirish

Alisher Navoiy turk xalqlarining ulug' shoiri, turk adabiy tilining imkoniyatlarini amalda isbotlab bergan buyuk ijodkor, Iloh, olam, odam, jamiyat, hayot va o'lim masalalarida turkona tafakkurni yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkir hisoblanadi.

Alisher Navoiy turk tilida samarali ijod qilgan. Uning Foni taxallusi bilan yozgan forsiy she'rlari devoni ham mavjud. Alisher Navoiy Musulmon Sharqida fors tilida asos solingan xamsa an'anasiga amal qilib, o'z "Xamsa"sini ijod qildi, "Lison ut-tayr" nomli tasavvufiy ta'limot bayoniga bag'ishlangan masnaviy yo'lidagi doston yozdi, to'rtta devondan iborat bo'lgan "Xazoyin ul-maoni" kulliyotini tuzdi, umri davomida tizimli badiiy va ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lib, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" kabi tarixiy asarlar, "Muhokamat ul-lug'aytn" nomli tilshunoslikka oid risola, "Mezon ul-avzon" nomli aruz ilmiga bag'ishlangan, "Siroj ul-muslimiyn" nomli Islom farzlari bayon etilgan 30 ga yaqin asarlar qoldirdi.

Alisher Navoiy ijodi o'zining davridayoq avom va xos orasida sevib qabul qilingan, asarlari qo'lma-qo'l bo'lib ko'chirilgan. Vaqt o'tishi bilan qo'lyozma asarlari nusxa ko'chirilib dunyo bo'ylab tarqalib ketgan. Bugungi kunda Alisher Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari "... Ashxobod, Berlin, Boku, Vena, Dublin, Dushanbe, Yerevan, Istanbul, Kobul, Kembrij, London, Myunxen, Nyu-York, Oksford, Parij, Sankt-Peterburg, Tehron, Upsala, Qozon, Qohira, Haydarobod kabi shaharlardagi Sharq qo'lyozmalari fondlaridan o'rin olgan".

1961-yildayoq atoqli o'zbek matnshunos olimi H. Sulaymonov o'z dissertatsiyasida Alisher Navoiy asarlarining dunyo fondlaridagi qo'lyozma nusxalari haqida ma'lumot beruvchi kataloglar va shoir devonlari qo'lyozmalari jahon bo'ylab qaysi fondlarda saqlanayotgani to'g'risida qimmatli axborot taqdim etgan edi.

Biz ushbu maqolamizda Alisher Navoiy va arab tili masalasiga muxtasar to'xtalmoqchimiz. Asosiy qismga o'tishdan avval shoir haqidagi muhim ma'lumotlarni qisqacha bayon etdik.

Alisher Navoiyning arab tiliga bo'lgan munosabati haqida so'z ochish asnosida mutafakkir asarlarining barchasi arabcha nomlanganiga ham diqqat qaratish lozim deb o'ylaymiz. Bu, albatta, alohida fenomen emas, balki o'rta asrlar Xuroson va Movarounnahr ilmiy-madaniy, adabiy-badiiy, diniy-ta'limiy muhiti arab tili bilan chambarchas bog'lanib ketgani bilan izohlanadi. Tabiiyki, kontekstni forsiy til gegemonligidan ham ayri ko'rish mumkin emas. Ana shu jarayonda Alisher Navoiy turk tili maqomi, uni ilm, ijod va davlat (siyosat) tili bo'lishi uchun kurash maydoniga kirdi. Bunday kurashga kirish uchun insondan gegemon tillarni mukammal bilish, u tildagi yaratilgan katta miqyosli ilmiy-ma'naviy merosdan chuqur xabardor bo'lish talab etiladi, shubhasiz. Alisher

Navoiyning turk tili himoyasi va uning rivoji yo‘lida shijoatli va asosli harakatlari bu borada unda nuqson bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, shoir tilning rivojlanishida tashqi manbalar omilini rad etmagan, bu uning arab tiliga muhabbati, arab so‘zlaridan o‘z ijodida unumli foydalangani va fors tilidagi ijodi misolida ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Alisher Navoiy turk tilidagi jumla qurilishi, matn tub-tubi bilan turkona ruhda bo‘lishiga urg‘u qaratgan. U til Tangrining bandalarga in‘omi ekaniga, har qavmning xosligi uning tiliga bog‘liq bo‘lishiga amin edi, shu bois turk tili uchun kurashini Parvardigorning o‘z qavmiga bergan omonatini saqlash bobidagi mas‘uliyati o‘laroq qabul qilish o‘rinli bo‘ladi.

Tadqiqotimiz manbalari

Ushbu maqolamizda Alisher Navoiy ijodida arab tilining xos o‘rni haqida so‘z yuritar ekanmiz, shoir ijodiga doir iqtiboslarni uning ikki kulliyoti qo‘lyozmasidan olamiz. Birinchisi Istanbuldagi To‘pqopi saroy muzeyi Sulaymoniya kutubxonasi Revan fondida 808-raqam bilan saqlanayotgan Navoiy kulliyotidir. Bu kulliyot 2020 yil Istanbulda Turkiya qo‘lyozmalarni saqlash boshqonligi tomonidan faksimil nashr qilingan. Nashrning 5–71-betlarida nashrga tayyorlovchi Gunay Kut xonimning so‘zboshisi bor. 802 ta varaqda esa nasta‘liq xat bilan ko‘chirilgan Alisher Navoiy matnlarini ko‘ramiz. Kulliyotda shoirning 26 asari o‘rin olgan. Biz bu kulliyotni asosiy manba qilib belgiladik va maqolamiz uchun shartli ravishshda R nusxa deb nomladik.

Ikkinchi kulliyot – maqolamiz uchun yordamchi manba etib oldik – Parijdagi Fransuz kutubxonasida saqlanayotgan ikki jildli Navoiy kulliyotidir. Bu nusxani internetdagi ochiq manbadan ko‘chirib olish imkoni bor. Mazkur kulliyotning birinchi jildi Turc.Suppl.316 va ikkinchi jildi esa Turc.Suppl.317 raqamlari bilan ro‘yxatga olingan. Biz maqolada bu kulliyot Parijda saqlanayotganiga ishora qilib, Turc.Suppl.316 nusxani P1, Turc.Suppl.317 nusxani esa P2 deb belgiladik.

P1 elektron nusxada الجُذُأَوَّلُ مِنْ كَلَيَاتِ نَوَائِي deb yozilgan betdan boshlab raqam qo‘yilgan. Har bir varaqqa bittadan tartib raqami qo‘yilgan. Shunga qarab biz betlarni “a” va “b” harflar bilan belgilaymiz. Masalan, 2a-betda to‘q zangori rangda yetti qirrası alohida ajratib uchburchak shaklida chiqarib chizilgan naqsh bor. Bu naqsh ichida avval katta doira chizilgan, uning ichida yana bir doira bor, ikkisining o‘rtasida 16 ta kichik doiralar joylatirilgan, har birining ichiga kulliyotdan o‘rin olgan asarlar nomi yozilgan; katta doira ichidagi doiraning ham ham kichik bir doira bor, shu ikkisining orasida 8 ta mitti doira aylana tarzida chizilib, ularning ichiga kulliyotdagi qolgan asarlar nomi tartib bilan bitilgan.

P1 nusxa “Munojot”dan boshlanib, “Saddi Iskandariy” bilan tugaydi. P2 esa “Xutbai devon” bilan boshlanib, “Munshaot” bilan yakunlanadi.

Ikki kulliyotning mundarijasi, asarlar tartibi haqida “Kulliyot va kontekst: Alisher Navoiy matnlarini tushunish sari bir qadam” nomli alohida maqola yozganmiz, bu maqola “Sharq yulduzi” jurnalining joriy 2023 yil 12-sonida e‘lon qilinishi rejalashtirilgan.



Asosiy maqsadimiz bu manbalarning to'liq tavsifini berish bo'lmagani uchun shu qisqa ma'lumotlar bilan cheklanamiz. Chunki biz bu o'rinda tadqiqotimiz manbasi haqida umumiy tasavvur bermoqchimiz, xolos.

Navoiy ijodi jo'g'rofiyasi: arab tili qayerda?

Alisher Navoiyning butun ijodini katta bir hududga qiyoslasa bo'ladi. Bu hududni ramziy qilib Navoiy ijodi jo'g'rofiyasi deb atasak, uning bir qancha xossalarini ko'rishimiz mumkin:

1. Ochiq diniy mazmundagi asarlari ("Munojot", "Arbain", "Siroj ul-muslimiyn").

2. Valiylar va shoirlar hayoti haqidagi manoqiblari ("Nasoyim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad").

3. Xamsa ("Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'atu sayyora", "Saddi Iskandariy").

4. "Lison ut-tayr".

5. Devonlari ("Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti, "Devoni Foni").

6. Tarixiy asarlari ("Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki ajam").

7. Tilshunoslikka oid asari ("Muhokamat ul-lug'atayn").

8. Adabiyot nazariyasiga oid asarlari ("Mezon ul-avzon", "Muradot")

9. Pand-nasihat yo'nalishidagi asarlari (qisman "Munshaot", "Nazmu ul-javohir", "Mahbub ul-qulub").

Bu juda katta hajmdagi ijodiy meros bo'lib, unda turk tilining bayrog'i hilpirab turadi. Bu ijodiy jo'g'rofiyada e'tiqod tomirlari, hikmat mevalari, badiiyat gullari, iztirob sahrolar, hayot daryolari, hijron alangasi, visol yomg'irlarini ko'ramiz va har bir o'rinda arab tili nafasini sezamiz. Go'yo arab tiliga oid kalimalar va arab fasohati Alisher Navoiy ijodi bo'ylab sochilib ketgan suv tomchilariga o'xshaydi. Ammo biz bu masalani shartli ravishda Alisher Navoiy ijodida arab tilining namoyon bo'lish o'rinlari deb nomlab tasnifladik:

1. Qur'on oyatlari va hadislardan parchalar. Alisher Navoiy o'z asarlarida bu ikki ilohiy manbadan ko'plab iqtiboslar keltirgan. Bu masala ustoz navoiyshunos O. Davlatov tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

2. Tasavvuf mashoyixlari tilidan keltirilgan hikmatlar. Bu, asosan, "Nasoyim ul-muhabbat" valiylar manoqibiga xos hisoblanadi. Alisher Navoiy bu asarda 770 valiyga oid turli ma'lumotlarni keltirib, ularga nisbat berilgan arab tilidagi baytlar, nasihatlarini keltirgan.

3. Arab tilidan tarjimalar. Bu masalada biz Alisher Navoiyning "Arba'in" hamda "Nazm ul-javohir" asarini zikr qilamiz. To'g'ri, shoir "Arba'in"ni ustoz Abdurahmon Jomiyning fors tilidagi tarjimasidan ilhomlanib yozganini e'tirof etgan, shunday bo'lsa-da, u jarayonda asl manbaga tayangan deb bilamiz. Alisher Navoiy hazrati Ali roziyallohu anhuning arab tilidagi "Nasr ul-laoliy" nomi bilan jamlangan hikmatlarini "Nazm ul-javohir" nomi ostida taronayi ruboiy janrida turk tiliga tarjima qilgan. Mazkur ruboiylar to'plami P1 nusxada 8b hamda 18a sahifalardan o'rin olgan. Hazrati Alining hikmatlari qizil va moviy siyoh bilan

tushunarli, aniq va ravshan ko‘rinishda harakatlar qo‘yilgan holda yozilgan. R nusxada esa bu asar 10a –18a betlarga joylashtirilgan, hazrati Alining o‘g‘itlari qizil siyohda tillarangli naqsh ichiga joylangan, ammo so‘zlarga harakatlar qo‘yilmagan.

4. “Sab’atu abhur” lug’ati. Biz bu haqda keyingi o‘rinlarda to‘xtalamiz. Garcha mazkur lug’at Alisher Navoiyga tegishli ekani bahsli masala sanalsa-da, Alisher Navoiy tuzmagani haqida ham qat’iy dalil mavjud emas. Shu bois biz “Sab’atu abhur”ni Navoiyning arab lug’atshunosligiga qo‘shgan hissasi sifatida qabul qilamiz.

5. Arab adabiyoti namoyandalariga murojaat. Alisher Navoiy o‘z asarlarida arab olim va shoirlari ismlarini zikr qiladi, ularga bog‘liq hikoyatlar ham keltiradi, xususan, “Mezon ul-avzon”da Xalil ibn Ahmadni aruz ilmi asoschisi sifatida tilga olgan bo‘lsa, “Lison ut-tayr”da al-Asma‘iy bilan bog‘liq voqeani bayon qilgan.

6. Alisher Navoiyning arab tilida yozgan misralari. Alisher Navoiy devonlarida she‘rning shiru shakar deb atalgan turiga ham uchraymiz. Maqolamizda “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi arabiy misrali g‘azallarni tadqiq qilish asosiy maqsadimizdir.

7. Genezisi bevosita arab adabiyotiga daxldor asarlari. Bu masalada hozircha “Xamsa” tarkibidagi “Layli va Majnun” dostonini keltira olamiz. Bu asarda voqealar bo‘ladigan makon arab diyori, doston qahramonlari arablardir. Qolaversa, “Layli va Majnun” syujeti ham to‘laqonli arab badiiy tafakkuri hosilasi ekanligi hamma ma‘lum.

Bizningcha, Alisher Navoiy ijodi jo‘g‘rofiyasida arab tili ana shu o‘rinlarda alohida ko‘zga ajralib ko‘rinadi hamda maxsus tizimli tadqiqot qilish mumkin bo‘lgan nuqtalardan hisoblanadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, hozircha Alisher Navoiyning “Sab’atu abhur”dan boshqa to‘liq sof arab tilida yozgan nazariy yoki badiiy asari bizga ma‘lum emas. O‘zbek navoiyshunosligida Alisher Navoiy asarlaridagi arab tiliga oid so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan nomzodlik ishi ham yoqlangan.

Alisher Navoiy nima uchun arab tilini dunyo tillarining afzali deb bilgan?

Alisher Navoiy arab tilining sharafiga qat’iyan ishongan. U “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida Yer yuzi bo‘ylab turli tillar tarqalgani, inson tili barchasidan afzalligi, inson tili ma‘no uchun mazhar bo‘lganligini ta’kidlab, arab tilini alohida ajratib zikr qiladi:

بارچاسي دين عرب تيلي فصاحت آيني بيله ممتاز و بلاغت تزييني بيله معجزه طراز دور كيم هيچ
تكلّم اهلى نينك موندا دعويسى يوقتور و سوزي صدق ايشى تسليم اوقدور كيم ملك علامّ جلّ و على كلام
معجز نظامى او تيل بيله نازل و رسول عليه الصلوة و السلام نينك احاديث سعادت انجامى اول لفظ بيله
وارد بولوب دور و اولياى كبار و مشايخ على مقدار قدس الله تعالى اسرارهم كوپراك حقايق و معارف كه
سوروبتورلار و معنى زييالارين تقرير لباسى غه كيووروب دور لار اول فرخنده عبارت و اول خجسته لفظ
و اشارت بيله واقع بولوبتور



Mazkur parchadan ma'lum bo'layotgan muhim nuqtalar sifatida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy arab tilini insoniyat so'zlashadigan barcha tildan afzal deb bilgan.

2. Alisher Navoiy arab tilini afzal bilishiga uchta sababni keltirgan: 1) Arab tilida Qur'on nozil bo'lgan; 2) Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hadislarini arab tilida vorid bo'lgan; 3) Avliyolarning haqiqat va ma'rifatga oid o'gitlarining aksari arab tilida bayon etilgan.

Xulosa qilish mumkinki, arab tiliga ehtirom Alisher Navoiyning e'tiqodiga bog'liq masala bo'lib, shoir bu tilni hamisha e'zozlagan va hurmat qilgan.

Alisher Navoiyning "Sab'atu abhur" lug'ati

Alisher Navoiy arab adabiyoti va arab tilining yetuk bilimdoni bo'lganiga hech qanday shubha yo'q. Buni unga nisbat beriladigan "Sab'ati abhur" lug'ati, asarlaridagi arabiy misralar, arab shoirlari ishtirokidagi hikoyatlar, shoir tuzgan she'riy jumalarda arab tili gap qurilish strukturasining yaqqol sezilib turishi, asosiysi, u foydalangan so'zlarning katta qismi etimologik jihatdan arab tiliga oid ekanligi buni tasdiqlaydi.

So'zimiz avvalida Alisher Navoiy tuzganligi aytiladigan "Sab'ati abhur" lug'atida haqida to'xtalib o'tsak. Bu lug'at ustida adabiyotshunos S. Hasanov tadqiqot olib borgan. 1974-yil u "Alisher Navoiyning "Sab'at abhur" asari" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim birinchi bobni "Arab leksikografiyasi tarixidan" deb atab, unda arab tilining birinchi izohli lug'atlari "Al-Boriy", "Qomus" kabi lug'atdan tortib, Qur'oni karim so'zlariga tuzilgan "G'arib al-Qur'on" lug'ati, ularning tarkibi, hajmi haqida ma'lumot bergan. Shuningdek, bobda eski manbalarda arab tilida yaratilgan manbalar ikkiga ajratilib tasnif qilinganligi aytiladi: 1) tovush e'tibori bilan tuzilgan lug'atlar; 2) so'zlarning ma'no e'tiboridan tuzilgan lug'atlar. S. Hasanovning arab tili izohli lug'atlari maktablarga ajratilgan holda ham o'rganilgan va u bu haqdagi to'rtta maktab haqida muxtasar to'xtalgan.

"Sab'at abhur"ning muallifi haqida" deb nomlangan ikkinchi bobda olim "Sab'at abhur" lug'ati qo'lyozmasining topilishi haqida xabar berib, ushbu qo'lyozmaning xutba va xotima qismida kotib Ahmad ibn Ali Damashqiy Maniniyning ushbu asar muallifi mir Alisher Navoiy ekani haqidagi jumlasini asosiy dalil sifatida taqdim qilgan. S. Hasanov "Sab'at abhur"ning olti nusxasini o'rganib chiqqanini aytib, shulardan uchta muallif nomi zikr etilmagani, ikkitasida Navoiy, yana birida esa Maniniy muallif deb qayd qilingan deya yozadi. S. Hasanov lug'at leksikasining asosiy qismini uch harfli o'zaklar tashkil qilishini, bu bobda 6451 lug'at maqola borligini qayd etgan. Miqdor jihatdan ikkinchi o'rinni to'rt harfli o'zaklar egallaydi (2056 ta). Uchinchi o'rinda besh harfli o'zaklar turadi (94 lug'at maqola). So'ng arab tiliga chetdan kirgan kam iste'moldagi so'zlar olti (1 lug'at maqola) va yetti harfli (2 lug'at maqola) so'zlar izohi ham borligini aytgan.

S. Hasanov Alisher Navoiyning mazkur asari arab lug‘atshunosligi rivojlanishi susaygan davrda vujudga kelganligi bilann alohida ahamiyatli deb hisoblaydi va bu lug‘atni arab leksikografiyasi tarixida Javhariyning “Sahoh” va Firuzobodiyning “Qomus” lug‘atlari bilan bir qatorda turishiga ishonadi.

“Lison ut-tayr”da kelgan Asma‘iy hikoyati

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida arab shoiri Asma‘iy haqidagi rivoyatni keltiradi. Ma‘lumki, to‘liq ismi Abu Sa‘id Abdul Malik ibn Qurayb bo‘lgan mashhur arab shoiri al-Asma‘iy milodiy 740 – 828 yillarda yashab o‘tgan. U abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashidning o‘g‘illari al-Amin va al-Ma‘munlarning tarbiyachisi bo‘lgan, Barmakiy vazirlarning hurmatini ham qozongan. U Xalil ibn Ahmad Farohidiyning shogirdi ham edi.

Asma‘iy haqidagi ayrim rivoyatlar o‘zbek tiliga ham o‘girilgan. Qizig‘i shuki, arab yozuvchisi Adham Sharqoviyning (falastinlik adib, 1980 yil tug‘ilgan) “Tonggi suhbatlar” kitobida Asma‘iy tilidan bir hikoya keltirilgan va u Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi hikoyaning ayni o‘zidir.

Alisher Navoiyga ko‘ra, voqeaning umumiy ma‘nosi shuki, Asma‘iy haj uchun safarga otlanadi. Yo‘lda bir manzilga tushadi. U yam-yashil makon bo‘lib, buloqdan suv oqib yotardi. Suv yoqasida esa taxta tosh bor ekan. Unda mana bunday yozuv bitilgan ekan:

بولماسا صبرو قرارى نيلاسون	کيمسه بولسا عشق زارى نيلاسون	چاره سين ايتينک جو بيلکاي سيز بو راز	آندا يازيلغان که اي اهل حجاز
----------------------------	---------------------------------	---	------------------------------

Yozuv o‘zida savolni aks ettirmoqda. Bir odam Hijoz ahliga xitob qilib, ishqqa muhtalo bo‘lganini, sabru qarorni yo‘qotganini aytyapti va bu dard davosini so‘ramoqda. Adham Sharqoviy kitobida bu savol Asma‘iyning bayti bilan ifodalangan:

أيا معشر العاشق بالله خبروا
إذا حلّ عشق بالفتى كيف يضع

Bu bayt o‘zbek tiliga shunday o‘girilgan:

Ey oshiqlar! Alloh uchun xabar bering!

Yigitning boshiga ishq tushsa nima qilsin?

Alisher Navoiy yozadiki, Asma‘iy mazkur bitikning tagiga shunday javob qoldiribdi:

قيلماسون فاش ايتكالى بي باكليك	کيم بو ورطه ايچره ايلاب پاکلک
--------------------------------	-------------------------------

Ya‘ni ishq yo‘lida poklikni tutgan ekan, oshiq isyon qilib ishqini fosh qilmasin.

Adham Sharqoviy esa Asma‘iy javobini shunday keltiradi:

يدا ري هواه ثم يكتم سره
ويخشع في كل الأمور ويخضع

“Tongi suhbatlar” kitobida bu bayt shunday tarjima qilingan:



Ishqi bilan murosa qilib uni yashirsin.

Barcha narsada xushu' va xuzu' qilsin!

Asma'iy oradan bir kun o'tkazib, tongda shu joyga qaytib ko'ribdiki, noma'lum kotib yana bitik qoldiribdi:

كيم اكر اول عاشق أزدرده جان	بولسا پاك و توتسا هم عشقين	ليك اول شوق و محبت شدتی	تيز اولوب طاق اولسا اينيك
نهان	نهان	نهان	طاقتي
وصل بولسا احتياجي نيلاسون	وصل بولسا احتياجي نيلاسون	تاپماسا بو ايش علاجی نيلاسون	تاپماسا بو ايش علاجی نيلاسون

Oshiq ishq pokligini aytmoqda. U biror g'araz bilan oshiq emas. Lekin shavqu muhabbati ziyoda bo'lib, sevgilining visolini xohlayapti. Bu esa poklik va beg'araz bo'lish talabiga to'g'ri kelmaydi. Shu boisdan u o'z ishqini pok va yuksak saqlash ilinjida yo'l so'rayapti.

“Tongi suhbatlar” kitobiga ko'ra, uning asli bunday yozilgan ekan:

وكيف يداري والهوى قاتل فتى
وفي كل يوم قلبه يتقطع

Tarjimasi:

Qanday murosa qiladi? Ishq yigitni qatl qilyapti-ku!

Har kuni uning qalbi parchalanayapti-ku!

Alisher Navoiy Asma'iy bu so'z tagiga shunday javob qoldirganini bayon qilgan:

يازدي كيم اول ناتوان دردمند	كيم انكا عشق ايچره يازديم	تاپماسا اول پند بيرله اختصاص	اولسين و عشق اوتيدين
بييله پند	بييله پند	تاپسون خلاص	تاپسون خلاص

Ifoda juda keskin jaranglaydi: Asma'iy savol so'rovchini notavon dardmand deb ataydi va ishq bobidagi pandini minnat ham qiladi. Ya'ni u ishqning sharti poklik va uni sir tutish ekanligini nazarda tutgan. Bu nasihat so'rovchiga yetarli bo'lmasa, o'lib ket, ishq olovidan qutulasan deydi.

“Tongi suhbatlar” kitobida ham shu ma'noga oid baytni o'qiymiz:

اذا لم يجد صبر الكتمان سره
فليس له شي سوى الموت ينفع

Tarjimasi:

Sirini yashirishda sabr topa olmasa,

Unga o'limdan boshqa narsa naf bermaydi!

Voqeaning so'ngi fojiali tugaydi: oradan bir necha kun o'tib, buloq tepasiga kelgan Asma'iy u yerda o'lib yotgan bir yigitni ko'radi. U o'z ishqini pok saqlash va sir tutish uchun hayotdan kechgan edi. Oshiq ishqini fosh qilib qo'yishni ishq shartini buzish deb ishongani uchun mana shunday taqdirga ro'para bo'ldi.

Biz bu o'rinda hikoyaning genezisi, g'oyasi, kontekstdagi tahlili haqida to'xtalmoqchi emasmiz. Aytmoqchimizki, “Lison ut-tayr” dostonida mashhur arab shoiri Asma'iy ishtirok etgan voqeaning keltirilishi, baytlari tarjima qilingan holda

berilishi Alisher Navoiyning arab she‘riyatidan teran xabardorligini ma‘lum qilmoqda. Biz Asma‘iyni asl matni deb ko‘rib chiqqanimiz baytlardan ko‘ra Alisher Navoiyning tarjimai keng, ta‘sirchan, bo‘yoqdor ekaniga guvoh bo‘ldik. Buni Alisher Navoiy arab tilidagi siqiq ifodani butun hissiyoti, mohiyati bilan yetkazib berish uchun tarjimaga erkin yondashgan deb izohlashimiz mumkin. Qolaversa, Alisher Navoiy quruq tarjimai maqsad qilmagan edi, balki kontekstda ishq mohiyatini ochib berish asosiy g‘oyasi bo‘lgani uchun mohiyatni nazardan qochirmagan holda masalaga ijodiy munosabatda bo‘lgan.

Umuman, mazkur mavzuni yana davom ettirish imkonimiz bor, xususan, bu hikoya “Lison ut-tayr” uchun asos hisoblanmish “Mantiq ut-tayr”da bormi, u qaysi birlamchi manbaga tayanadi degan savollarga javob berish zarurati ham turibdi, biroq biz maqolamizda Alisher Navoiy va arab tili masalasida tadqiqot olib borayotganimiz uchun bu ishlarni kelgusiga qoldiramiz.

Kontekstual tahlil metodi

Metodologiya har qanday tadqiqotning yuragi hisoblanadi. Olimlar: “... metodologiya tadqiqotchiga narsada (ya‘ni o‘rganish ob‘ektida) nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko‘rsatib turadi. Tadqiqotchida, izchil tadqiqotda metodologiya hamisha bitta bo‘lib, u olimning dunyoqarashini tashkil etadi. Bir tadqiqotda bir paytning o‘zida birdan ortiq metodologiyaga tayanish mumkin emas”, – deb hisoblaydilar.

Metod esa metodologiya maqsadiga erishish uchun qo‘llanadigan yo‘l sanaladi. Metodika biror tadqiqotchining metodologik qarashlari va foydalangan metodlariga nisbatan qo‘llanadigan umumiy nomdir.

Alisher Navoiy asarlarini, xususan, mazkur maqolada uning arabiy misralari g‘azallarini o‘rganishdan murodimiz – Alisher Navoiy aytgan so‘z, uning ijodidagi bosh g‘oya va fikrlar tizimini aniqlash, to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri tushuntirib berishdir. Bu metodologiyamizning asli, o‘zagi hisoblanadi.

Metodologiya o‘zgarmaydi, lekin uning muayyan qirralariga qarab yondashuv va metodlar farqli bo‘lishi mumkin.

Maqolamizning bosh masalasi – “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi arabiy misrali g‘azallarni tadqiq qilish ekan, quyidagi nuqtalarni belgilab oldik:

1. Ushbu g‘azallarining asl manbadagi matnini ikki nusxa asosida qiyoslash.
2. G‘azal matnini kontekstual tahlil metodi asosida o‘rganish.
3. Arabiy misralarning g‘azal ma‘nosiga ta‘sir darajasi va nima uchun Alisher Navoiy arabiy bayt keltirdi degan savolga javob izlash.

Bu uch jihat bizning metodologik yondashuvimizdir.

G‘azalning ma‘no va mohiyatini devon kontekstida o‘rganish alohida masala yoki Alisher Navoiyning boshqa devonlaridagi arabiy misrali she‘rlariga bog‘liq holda tadqiq etish ishni monografik planga olib chiqishi mumkin, shuning uchun biz tadqiqotimizni ana shu uchta maqsad bilan chegaralab oldik.

Qo‘yilgan muammoga javob berish uchun kontekstual tahlil metodidan foydalanishga qaror qildik. Kontekstual metod muammoni turli qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni o‘rgangan holda o‘xshashliklarning

o'zaro munosabati, turli qismlarning asosiy masalaga aloqadorlik xususiyatlariga diqqat qaratadi.

Biz ob'ekt sifatida olayotganimiz g'azallarni bunday yo'l bilan tahlil qilamiz:

1. G'azal matnlarini kontekstual birlik (qismlarga) ajratib chiqamiz.

2. Har bir kontekstual qismning mohiyatida turgan xabarni o'rta qo'yamiz.

3. Bu qismlarni qaytadan umumlashtiramiz va xulosalarni matnning o'zidan topamiz.

Kontekst lotincha so'z bo'lib, "birga", "mato" degan lug'aviy ma'nolarni bildirib, "... alohida so'z (matn birligi)ni qurshab turgan va uning ma'nosi tushunilishiga asos bo'luvchi matn"dir. Biz bu o'rinda kontekstni ham umumiy, ham xususiy ma'noda tushunamiz. Bir vaqtning o'zida kontekst – bu g'azalning to'liq matni va g'azalning muayyan qism, masalan, bir misrasi yoki bir baytidir.

Matnning tugal axborot yoki fikr tashigan va tugal xabar saqlashi mumkin bo'lgan boshqa qismga bo'linmaydigan parchasini kontekstual birlik deb atayapmiz.

Kontekstual tahlil metodi ko'rilayotgan masalaga oid avvalgi tadqiqot natijalariga murojaat qilish va ulardan foydalanishni rad qilmaydi.

Mazkur metod bilan g'azalni tahlil qilamiz, o'rta qo'ygan va yuqorida ta'kidlab o'tganimiz uchta masalaga mana shu yondashuv doirasida javob beramiz, shu tariqa metodologiyamizdagi bosh maqsad – Alisher Navoiy aytishni xohlagan so'zga yetib borishga harakat qilamiz.

Kosa quyoshidan porlagan nur

Alisher Navoiy o'z turkiy she'rlarining deyarli hamma qismini "Xazoyin ul-maoniy" nomli kulliyotga jamladi. Bu kulliyot to'rt qismdan iborat bo'lib, har biri umrning muayyan davrini nazarda tutadi: "G'aroyib us-sig'ar" (Bolalik g'aroyibotlari) go'daklikka, "Navodir ush-shabob" (Yigitlik nodirliklari) navqiron yoshlikka, "Badoe' ul-vasat" (O'rta yosh go'zalliklari) o'rta yoshning g'ayratiga, "Favoyid ul-kibar" (Keksalik foydalari) qarilikning hikmatiga dalolat qiladi.

Biz murojaat qilayotgan "G'aroyib us-sig'ar" "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoni sifatida ham ahamiyatli, chunki bu devon shoir she'riyatiga kirish ostonasidir. Devondagi she'rlar mazmuni kulliyotning asosiy qismi g'oyasini anglashda kalit, ustqurma, asos vazifasini o'tashi shubhasiz. Xususan, devondagi ilk g'azalni navoiyshunos olimlar butun "Xazoyin ul-maoniy" uchun kalit ekani haqida fikr bildirishgan.

G'azalning matni bu:

یوق تور ای ساقی می وحدت مثل لی ک غمزدا	غیر نقشی دی کونکول جامی دا بولسه زنک غم	یار عکسین می دا کور دی ب جام دی چ یقتی صدا	أَشْرَقَتْ مِنْ عَكْسِ شَمْسٍ الْكَاسِي أَنْوَارُ الْهَدَى
یوز جهان هر دم نثار اول می اوچون می نک جان فدا	جام و می کر بیله دور اول جام اوچون قیلماق بولور	جام اولور کی تی نما جمشید آنی ای چکان کدا	ای خوش اول می کی م انکا ظرف اولسا بیر سی نغان سفال

چەرھ مقصود محو اولغای همول دم ما عدا	تاكه اول می دین کونکول جامی دا بولغاچ جلوه کر	جام می توتسانک می نی دیوانه دین قیل ابتدا	دیر ارا هوش اهلی رسوا بولغالی ای مغیچه
بیلماین نفی ایتما بو میخانه اهلین زاهدا	سین کمان قیلغان دین اوزکا جام و می موجود ایروور	جام و می لفظی دین کان بیر اسم ایله قیلغای ادا	وحدتی بولغای می سر می بیله جام ایچره کیم
اشربوا یا ایها العطشان کیلور هر دم ندا		تشنه لب اولما ناویلی چون ازل ساقی سی دین	

G‘azal 9 baytdan iborat. Unda eng avvalgi misra to‘liq arab tilida va eng oxirgi satrda arabiy xitob kelgan.

Matnda baytlar sonidan ko‘ra kontekstual birliklar ko‘proq bo‘lishi mumkin. Dastavval, matnni qismlarga ajratib chiqamiz.

1-kontekstning qismlari: kosa quyoshi, aks, hidoyat nurlari.

Kontekst markazida “porladi” (اشرققت) so‘zi joylashgan va kontekstdagi asosiy ma‘no uning atrofiga qurilgan: kosa quyoshining aksidan hidoyat nurlari porladi. Kosa nima? Undagi quyosh-chi? Kosa quyoshining aksi qanday ma‘noga ega? Hidoyat nurlari nima uchun kosa quyoshi aksidan porlashi kerak? Kosaga quyosh qaerdan kelib qoldi? Bu savollarga g‘azalning keyingi kontekstual birliklaridan javob izlaymiz. Tashqi manbani jalb qilmaymiz. Kontekstual tahlil metodida muammo faqat kontekstlar aro hal etiladi.

2-kontekstning qismlari: sado, jom, Yor aksi, may.

Bu birliklar shunday kontekst manzarasini yuzaga keltiradi: Yorning aksini mayda ko‘r deya jomdan sado keladi. Ikki misrada ikkita kontekst borligini ko‘rdik. Ularni qismlarga ham ajratdik. Mazkur qismlarni o‘zaro bog‘lanish nuqtalari bormi? Diqqat qilsak, shunday ichki bir aloqadorlikni topamiz: kosa – jom; kosa quyoshining aksi – Yor aksi. Ikkala kontekstni birlashtirsak, bunday holatni tasavvur qilish mumkin: Yor quyoshga o‘xshaydi, kosa quyoshidan murod – Yordir. Adabiyotshunos A. Qozixo‘ja mazkur arabiy misrani “Kosada quyosh aksidan hidoyat nurlari jilvalandi”, – deb tarjima qilish kerak deb hisoblagan. U mazkur talqinni arab tiliga xos bo‘lgan balog‘at ilmi asoslariga tayangan holda tushuntirgan. Biz A. Qozixo‘ja talqinini rad etmagan holda شمس الکأس kontekstual birligini kosa quyoshi deb qabul qilish maqsadga zid emas deb aytamiz. Quyosh – Yor ekan, uning aksi may to‘la kosa, jomga tushib turibdi. O‘z-o‘zidan quyosh kosaga “tegishli” bo‘lib qoldi. Albatta, bu bir istiora. A. Qozixo‘ja uni “istioratun bil-kinoya” ekanligini aytgan. Quyosh kosaning ichiga kirib joylashib olmagan, balki uning tajalliysi, xolos. Ana shu aksdan hidoyat nurlari porlaydi. Jilvalanish va porlash o‘rtasida farq bo‘lgani uchun ham A. Qozixo‘ja boshqa navoiyshunoslardan farqli ravishda “jilvalandi” so‘zini qo‘llagan. Jilvaning zuhurida yoritish xossasi kamroq, ammo porlashning xususiyati shuki, u atrofni ravshan qiladi.

Ikkala kontekstni umumlashtirsak, jomdan: “Quyosh kabi Yorning aksini mendagi mayda ko‘r!” – deb sado keladi, Yorning aksidan esa hidoyat nurlari porlaydi. Lekin may va jomning o‘zi nima ekanligi, Yor nima uchun quyoshga qiyos qilingani, kontekstdan qasd etilgan so‘nggi ma‘no ochilgani yo‘q. Buning uchun matnning keyingi kontekstiga nazar solish lozim.



3-kontekstning qismlari: begona naqsh, ko'ngil jomi, g'am zangi, vahdat mayi, soqiy, g'amzudo.

Kontekst manzarasi bunday – begona naqshdan ko'ngil jomida g'am zangi bor bo'lsa, vahdat mayi kabi uni ketkazadigan g'amzudo yo'q. G'amzudo – g'amni ketkazuvchi. Yuqoridagi ikkita kontekstda nazarda tutilgan jom va mayning nima ekanligi bu kontekstga kelib ayon bo'ldi – jom (kosa) ko'ngil, may vahdat mayi ekan, ya'ni vahdat mayga istiora qilinibdi. Vahdat nima? Soqiy kim? Matndagi lirik qahramon nima uchun soqiyga xitob qilyapti: soqiyga vahdat mayining ahamiyati haqida ta'lim beryaptimi yoki eslatyaptimi? Yoki ta'kidlangan haqiqatni tan olyaptimi? G'ayr naqsh-chi?

May mast qiluvchi xususiyatga ega, demak, vahdatda ham ana shu xususiyat borki, istiora uchun tanlangan. Vahdatning lug'aviy ma'nosi yakkalik demakdir. Ammo metodimiz talabiga ko'ra, tashqi manbaga murojaat qilishdan o'zimizni tiyib, kontekst bo'ylab, bu o'rinda kelayotgan “vahdat” qaysi ma'noda ekanini izlashimiz kerak. Bu birinchi masala. Ikkinchidan, begona naqsh bor ekan, demak, begona bo'lmagani ham mavjud.

Soqiy may uzatuvchidir. Kontekstga ko'ra, u vahdat mayini uzatadi, lirik qahramon o'zida g'am zangi borligin aytib, may so'rayotgan ko'rinadi, sababini izohlamogda. Ko'rib turganimizdek, ayrim masalalar oydinlashdi, lekin hali mavhumliklar ko'tarilgani yo'q.

4-kontekstning qismlari: xush may, zarf, sing'on safol, jom, Jamshid, gado.

Manzara: bu juda yaxshi mayki, uni biror singan sopol bo'lagiga quyilsa, ya'ni siniq sopol parchasi unga idish bo'la olsa, bu jom getinamo, u mayni ichgan gado esa Jamshidga aylanib qoladi.

Mazkur qismda asosiy urg'u mayning sifatiga qaratilgan. Bu qanday may? U juda yaxshi va a'lo may. Biror singan sopolga quysang, o'sha sopolda ham o'zgacha xususiyatlar namoyon bo'ladi. Ko'rib o'tdikki, jom – ko'ngil, singan sopol ham ko'ngilga istiora qilinmogda, uning singani esa shikastalikdan nishona, shunday bo'lsa-da, siniq qalb sohibi vahdat mayidan simirsa, o'zi Jamshidga aylanadi, qalbi esa getinamoga.

Jamshid tarixiy shaxs bo'lib, Eronda hukmdorlik qilgan peshdodiylarning beshinchi podshohi, uning hukmronlik davrida tabiiy ofatlar bo'lmagan, kasalliklar barham topgan, o'zi esa bazm va bayramlarni juda hashamat bilan o'tkazgan.

Getinamo – jahonni ko'rsatuvchi.

Bu tasvirlar mayning naqadar xislatli ekanini o'rta qiy chiqardi. Uning odam tasavvuridagi may emasligini oydinlashtirdi. Qalbni butun olamni ko'ra oladigan oynaga aylantirishi, ichgan insonni Jamshiddek baxtiyor qilishi vahdat mayining xususiyatlaridan biri ekanini his qilamiz, lekin hali axborot to'liq bo'lmadi. Bu o'rinda bu mayga jom vazifasini o'taydigan ko'ngilning may unga quyilishdan avval siniq sopol bo'lganini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Shunda mayning xislati yana ham yaqqolroq ko'rinadi.

5-kontekstning qismlari: jom, may, yuzta jahon, mingta jon.

May va jomda shu qadar yaxshiliklar bor ekan, mana shunday jomga har lahzada yuzta jahon bag'ishlansa, may uchun ming jon fido etilsa, arzir ekan. Bu kontekst o'zidan avvalgisining uzviy davomi bo'lib, jom va mayning qadrini ko'rsatib bermoqda. Vahdat mayi va u quyilgan jomning qiymati bu.

6-kontekstning qismlari: dayr, hush ahli, mug'bacha, jomu may.

Kontekst shunday: lirik qahramon mug'bachaga xitob etyapti – dayr ichida hush ahlini esdan ayirib, ravso ahvolga solaman desang, bu ishni avvalo, mendan boshla.

Odatiy va hammaga xos fikr shuki, hush ahli bo'lish fazilatdir. Lekin matn ichidagi so'zlovchi hushini yo'qotib, rasvo holga tushishni orzu qilmoqda. Bu ishni bajaradigan mug'bachadan ham shuni iltimos etyapti.

Biz mayni vahdat mayi, jom esa ko'ngil deya tushunib kelayotgan edik, lekin mug'bachaga xitoban jomu may tutsang deyilishi masalani chigallashtirdi. Mug'bacha – musulmon bo'lmagan go'zal yuzli o'spirin yigit bo'lib, mayxonada may quyish bilan shug'ullangan. Mug'bacha kim bo'ldi endi? Uning qo'lidan vahdat mayi ichiladimi? Jom ham unda ekan, demak, bu jomning yangi ma'nosimi?

Dayr – rohiblar yashaydigan butxona. Hush ahlining butxonada ne ishi bor?

7-kontekstning qismlari: may, ko'ngil jomi, chehrai maqsud, mo'ado.

Bu kontekst qismlari mahv bo'lmoq so'zi atrofiga jipslashgan. Mug'bacha tutadigan may ko'ngil jomini to'ldirgach, unda chehrai maqsud jilva etarkan, shunda dunyodagi barcha narsalar mahv bo'lib ketadi. Diqqat qaratish lozim bo'lgan nuqta shuki, mug'bacha qo'lida alohida jom bor, ko'ngil jomi alohida. May esa vahdat mayi ekan. Chehrai maqsud – ko'rish maqsad etilgan chehra, Yorning aksidir. Bu aks esa ko'ngildagi mayda tajalliy qiladi. Avvalgi kontekstlar bilan bog'lab shunday ma'no chiqarish mumkin, lekin soqiy va mug'bacha, dayr va hush ahlining rasvo bo'lishi kabi kontekstual birliklarga kontekstning o'zidan izoh topilmadi. Ammo bu birliklar ham vahdat mayi va chehrai maqsudga aloqadorligini bilish mumkin.

8-kontekst qismlari: vahdat, jom, may.

Kontekst bunday: vahdat jom va may ichida muyassar bo'ladi – oson qilinadi, erishiladi. Vahdat yakkalik, tanholik ma'nosini bildiradi dedik. G'azalning avvalidan boshlab Yor aksini – chehrai maqsudni ko'rishga bo'lgan ishtiyoq, soqiy va mug'bachaga murojat – bularning hammasi vahdatga muyassar bo'lmoq qasдини ifodalayotgani ma'lum bo'ldi. Ya'ni matndagi qahramon – vahdat talabgori. Lekin vahdatning mohiyati kontekstda hamon ochilgani yo'q. Biz esa kontekstlararo so'zlar va jumlalarining shoir nazarda tutgan ma'nosini izlayotganimiz uchun tashqi manbalarga chiqmaymiz, ya'ni matn kontekstidan tashqari kontekstlarga chiqishdan saqlanamiz, o'rganayotgan matnimizdagi ma'no kodlarini yechish uchun avvalo, shu matn konteksti bo'ylab harakatlanamiz, so'ng bu matn mansub bo'lgani – "G'aroyib us-sig'ar" kontekstini tekshirib chiqamiz, so'ng "Xazoyin ul-maoniy" kontekstida so'z va jumla kodlariga javob izlanadi va hokazo. Alisher Navoiyning butun boshli ijodi kontekstida



masala yechilmasa, undan so'ng uning ijodiga yondash kontekstlarga ko'chib o'tiladi. Bu katta tadqiqot, uning qoidalarini maxsus bayon qilishga ehtiyoj bor, biz esa g'azal tadqiqida davom etamiz.

9-kontekstning qismlari: jomu may, lafz, ism.

Mazkur kontekst shunday xabarni tashiyapti: jom va may lafzini aytgan odam bir ism bilan (buni) ado qiladi. Ado qilinadigan vazifa – vahdatga muayassar bo'lishdir. Bu 8-kontekstga ko'ra aniq bo'lib turibdi. Jom va may lafzlarini aytgan odam kim? Vahdatga talabgor inson. U o'z talabiga bir Ism bilan erishadi. Bu qanday ism? Kontekstga ko'ra Yorning ismi. Chunki Yorning yuzi, chehrasi – maqsad-ku. Demak, Yor ismini zikr qilish bilan vahdatga muvaffaq bo'lish mumkin. Ammo Yorning ismi hali aytilmagan.

10-kontekst qismlari: zohid, jom, may, mayxona, mayxona ahli.

Kontekst xitob shaklida kelyapti: ey zohid, sen gumon qilayotgan jom va maydan boshqasi ham bor, buni bilmaysan, bilmasdan turib inkor qilma. Bu matn kontekstidagi uchinchi xitob. Avvalgi ikkisi soqiy va mug'bachaga qaratilgan bo'lsa, endi zohid xitob markaziga qo'yildi. Diqqat qilsak, g'azal matni ichida yolg'iz lirik qahramonning o'ziga xos bo'lgan kontekst bor edi – bunda hamma narsa unga xayrixoh, har kim u tomonda, hamma narsaning tilini u tushunadi, uning tilini boshqalar tushunadi. Xitob ma'nosidan ma'lum bo'lyaptiki, zohid begona qatlamdan. Zohid boshqa bir chegaralarga mansub. U jom va may ma'nosini bilmaydi, bexabar, unga bilish eshiklari ham yopiqdek. Shunday bo'lsa-da, zohid g'azal matnidagi lirik qahramonni inkor qiladi, u tilga olayotgan jom va mayga, u talpinayotgan mayxonaga qarshi. Chunki u gumon qilayotgan may, jom va mayxona yaxshilik keltirmaydi, chunki may, jom va mayxona insonni yomonlikka yetaklaydi deb ishonadi. Lirik qahramon esa unga inkor qilma, sen bilmaysan, gumoningdan boshqa haqiqatlar ham bor deb ta'kidlamoqda.

O'rganilgan kontekstlarga ko'ra, lirik qahramon vahdat mayi, ko'ngil jomi haqida gapirmoqda, u tilga olgan mayxona ko'ngil jomiga vahdat mayini istaganlar jamlanadigan bir maskan, makon ekanligini tushuna olamiz.

11-kontekstning qismlari: Navoiy, tashnalab inson, Azal Soqiysi, har dam, nido, atshon.

Bu matnning so'nggi konteksti. Bunda matn muallifining o'ziga murojaati bor. Butun matnda aynan Navoiyning o'zi lirik qahramon o'laroq harakat etayotganmide degan savol chiqadi qarshimizdan. Yoki u boshqa odamu, Navoiy uni kuzatib, holatning roviysiga aylangan, so'ng so'z oxirida o'zining tashna ekanligini his etdimikin?

Kontekst bunday: Ey Navoiy, tashnalab bo'lma, chunki Azal Soqiysidan har lahza: "Ichinglar, ey tashnalar!" – nidosi kelyapti.

Azal Soqiysi kim? Albatta, Azal Soqiysi azaldan mavjud bo'lgan Soqiyni ifodalaydi. Azaldan esa birgina Zot bor edi. Demak, Azal Soqiysidan murod – Parvardigordir. Lirik qahramon suvga tashna bo'lyaptimi? Yo'q, u vahdat mayiga tashna bo'lmoqda. Vahdat mayini ichinglar deb Azal Soqiysi aytyapti. Nima uchun u Soqiy? Chunki vahdat mayini faqat u bera oladi.

Biz uchun g'azalning so'nggi misrasida arabiy jumla kelgani ham ahamiyatli. Bu jumlaning biz boshqa manbalardan topa olmadik, demak, bu bevosita Alisher Navoiy qalamiga mansub – u Parvardigorning saxiyliigi, karamini ifodalash uchun yozilgan mazkur jumlaning o'zi ijod qilgan deb ayta olamiz.

Kontekstual tahlil metodiga ko'ra, biz maqolamiz uchun tadqiq ob'ekti bo'lgan birinchi matnning kontekstual birliklar (qismlar)ga hamda kontekstlarga ajratib ko'rib chiqdik. Tugal tasavvur uchun kontekstdagi manzarani uch qismga bo'lishimiz mumkin:

Birinchi manzara – kontekstdagi zamon: lirik qahramon joriy kechayotgan zamon ichida turib gapiryapti.

Ikkinchi manzara – kontekstdagi makon: borliq, dayr, mayxona.

Uchinchi manzara – kontekstdagi qahramonlar: matnning bayon qilayotgan roviy, lirik qahramon, soqiy, mug'bacha, zohid, Azal Soqiysi. E'tiborli jihati, Azal Soqiysi butun matndagi muammo va mavhumlikni bartaraf qiluvchi o'laroq maydonga kirdi.

To'rtinchi manzara – kontekstual birliklar: may, jom.

Bu uch manzara esa matndagi bunday kontekstni yuzaga chiqarmoqda: hali sifatleri to'liq bilinmagan lirik qahramon bor. U dunyoda vaqt kengligi bo'ylab aylanib yuribdi. Ammo safarining taassurotlari, tafsilotlari noma'lum, bu matnda u faqat xulosasini bayon etmoqda: borliq olamida inson vahdat mayi bilan tasalli, taskin topadi. Vahdat mayi haqiqatga yetkazadi. Buning uchun vahdat mayi bilan ko'ngil jomini to'ldirish lozim. Vahdat mayi, avvalo, Azal Soqiysidan ato etiladi. So'ng borliqda u izn berganlar (soqiy, mug'bacha) bu mayni mayxona va dayrda talabgorlarga quyib beradilar. Vahdat mayini ichgan odam es va hushini yo'qotadi. Buni vahdat mayidan bexabar zohidlar tushunmaydi, ular bu holni rasvolik deb biladilar. Vahdat mayi qalbga kimgach, unda Yor chehrasining aksi namoyon bo'ladi. Ana shu aksdan hidoyat nurlari taraladi. Vahdat mayi va uni ichish, vahdat mayi uchun mayxona va dayrda to'planish, demak, Azal Soqiysining irodasiga zid kelmaydi. Demak, matndagi may va jom, dayr va mayxonaga, soqiy va mug'bachaga xos bo'lgan haqiqatlarni ochish kerak. Chehrasi vahdat mayida aks etadigan Yorni ham tanib olmoq lozim. E'tiborli jihati, oshiq Yorning O'ziga, Yorning Zoti yoki vujudiga emas, uning aksiga, tajalliysiga talpinmoqda. Nima uchun? Bundan ikki to'xtamga kelish mumkin: demak, Yorning O'ziga yetib bo'lmaydi; demak, Yor faqat o'z aksini tomosha qilishga izn bergan, xolos.

Biz kontekstning o'zini tahlil qildik. Kontekstning o'zini tadqiqqa tortdik, bu esa Alisher Navoiy aytmoqchi bo'lgan so'z, anglatishni istagan ma'no shu edi degani emas. Ta'kidlab kelayotganimizdek, boshqa matnlarning ham kontekstlarini ko'rish hamda bu yerdagi kodlar uchun ulardan javob izlash kerak.

Maqolamizda Alisher Navoiy va arab tili masalasi bilan shug'ullanyapmiz. O'rganib chiqqan bu g'azalda ikkita arabiy jumlaning ko'rdik, ikkalasi ham Alisher Navoiy qalamiga mansub deb xulosa qildik, arabiy jumlar matnga singib ketgani, matn kontekstidagi ma'noni ochib berish uchun asosiy kalit ekaniga guvoh bo'ldik. Aynan arabiy jumlagi bu qadar muhim vazifaning yuklanishi bu tilga bo'lgan ehtirom bilan barobar bu tildagi manba yoki kontekst Alisher Navoiy tafakkurini anglash uchun ham asosdir degan xulosaga yetaklaydi.

Endi esa "G'aroyib us-sig'ar" devonida kelgan arabiy jumlati ikkinchi g'azal bilan tanishamiz.

"Bizga fano jomida may qani?"

Bu g'azal mazmunan oshiqona ruhda. Lekin undan tugal g'oyani tushunish uchun kontekstual tahlil metodiga suyanib tadqiq amalga oshirishimiz lozim.

G'azal matni bu:

مہوشا سرو قدا لالہ رخا سیم تنا	چارہ کیم قالمادی صبرہم غم ہجری نک دا یانا	اختر سعد سینینک دیک کہ توغوب تور کویی	کیم قویاش ایدری اتا و تولون آی ایدری انا
کر فلک سیری دور ایستار سین ایلاب تک و دو	ور ملک ذکرین ایشیتسانک سنگا دیر مدح و ثنا	ایله عشقینک مپی لب تشنه سی مین کیم ایچمان	آز دیبان بادم اوچون بولسا فلک جامی انا
عشق محنت لاری ترکی نی بویورمانک منکا کیم	موجب صحت و قوت دورور اول رنج و عنا	خانقاه ایچره ایروور شیخ و اوزین کورساتماک	ای خوشا مغیچه لار جلوه سی و دیر فنا
جز نوالیی با ری غه جام کرامت توتونک	آئها الساقی من کاس فنا آئن لنا		

1-kontekstning qismlari: mahvash, sarvqad, lolarux, siymtan, chora, sabr, hajr g'ami, yor.

Matnning ilk kontekstida lirik qahramonning sevgiliga xitobini ko'ramiz. Unga to'rt sifat bilan nido qilmoqda: mahvash – oy kabi; sarvqad – qomati sarvdek; lolarux – yuzi loladek; siymtan – tanasi kumushdek. Mazkur to'rt sifat zamirida ham uyg'unlik bor: mahvash – lolarux; sarvqad – siymtan. Bu uyg'unlik haqida fikrlar ekanmiz, biz zaruratan yana bir nusxaga murojaat qilishga majbur bo'ldik, bu To'pqopi muzey saroyi, Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondida 4056-raqam bilan saqlanayotgan nusxa edi. Ana shu nusxada birinchi satr shunday yozilgan ekan: مهوشا لاله رخا سرو قدا سیم تنا. Ya'ni bu nusxada ana shu uyg'unlik aks etib turibdi. Qaysi biri to'g'riroq bo'ladi degan masala o'rta chiqqanda biz R va P1 nusxalarni e'tirof etamiz. Chunki ma'nodoshlarni yonma-yon qo'yish, bizningcha, badiiyatga to'liq mos emas, lekin ularni oralatib joylashtirish so'zning yangi qirralarini ochadi.

Lirik qahramon sevgilining yuz va qomatini vasf etyapti. Uni shu qadar sog'inganki, bu sog'inch qarshisida sabr va chorasi qolmadi. Bu kontekstdan oshiqning olovli va shiddatli muhabbatiga guvoh bo'ldik.

2-kontekstning qismlari: axtari sa'd, quyosh, oy, ota, ona.

Oshiq o'z ma'shuqi go'zalligini vasf etishda davom etyapti. Unga bu malohat qadarda bitilganiga ishora qiladi, chunki bu go'zalni axtari sa'd – baxt yulduzi tuqqan! Bu o'rinda saodat yulduzi burjida tug'ilding deb tushunish kerak, chunki kontekstning davomida otang go'yo quyoshu, onang to'lin oy deyilgan. Albatta, quyosh va oyning bolasi oftobdek nurli, mohtobdek porloq bo'ladi.

3-kontekstning qismlari: falak, sayr, malak, madhu sano.

Bu kontekst o'zidan avvalgisining ifodasiga mantiqan to'g'ri keladi: quyosh va oyning bolasi bo'lgach, falak ham uni sevishi tabiiy – nima uchun falak tinimsiz aylanadi, harakatda? Chunki u bu go'zalga oshiq bo'lgan, uni izlab yuribdi. Sevgilining o'zi eshitsa edi, farishtalar ham uni maqtashayotganiga guvoh bo'lardi.

Mazkur manzara oshiq sevgan ma'shuqning samoviy qatlamlarga mansub ekani ma'lum bo'ladi. Lekin hali hech narsa aniq emas. Tasvirlar chiroyli, lekin ifoda ortidagi asl mohiyat ochilgani yo'q.

4-kontekstning qismlari: ishq, jom, falak, tashna, ino.

Oshiq sevgiliga bo'lgan ishqning tashnasi! Bu tashnalik shu qadarki, osmonni qadah qilsalar va uni shu ishq mayi bilan to'ldirib tutsalar, ichmaydi, chunki may solingan idish kichik! Ichgan bilan chanqoq qonmaydi.

Kontekstdagi ma'no falakning mahbubga bo'lgan muhabbatini ham dog'da qoldirdi. Oshiqning talabi olamga sig'masligi ma'lum bo'ldi. Mahbub va unga bo'lgan ishqning qiymati aqlga sig'mas darajada yuksalib ketdi.

5-kontekstning qismlari: ishq mehnati, mujibi quvvat va sihat, ranju ano.

Kontekstdan seziladiki, kimdir bor. U oshiqqa achinib, ishqdan qaytarishni istaydi. Oshiq esa unga javoban, ishq mashaqqati tarkiga meni buyurmang, chunki sihatim va quvvatimning sababi mana shu azobu og'riqlardir deb javob bermoqda. Bunda oshiqning ishqqa bo'lgan sadoqati zuhur qilmoqda.

6-kontekstning qismlari: xonaqoh, shayx, mug'bacha, dayri fano.

Kontekstda ko'rinmayotgan, oshiqning xitobi orqali anglanayotgan kimdir xonaqohga da'vat qilayotgani uchun lirik qahramon xonaqohda shayx o'zini ko'z-ko'z qilish bilan band, meni u yerga chaqirma deb e'tiroz bildiradi. U fano dayri va mug'bachalar bu illatdan xoli ekanini aytib, ular davrasi afzalligini ta'kidlaydi.

7-kontekstning qismlari: jomi karomat.

Mazkur kontekstdagi oxirgi misra arabiy jumla bo'lib, bizning maqolamiz mavzusini yana ham ochish uchun asosiy nuqta sifatida xizmat qiladi: lirik qahramon o'zini nazarda tutib, Navoiydan boshqa hammaga karomat jomini tuting deydi. Sen nima istaysan deb so'rasalar, arab tilida bizga fano jomidan qani, ey soqiy deb savol beradi.

G'azalning umumiy konteksti shunday: lirik qahramon – oshiq, u o'z sevgisiga sodiq. Sevgili ham o'ta malohatli va husndor. U saodat yulduzi burjida tug'ilgan; u quyosh va oyning farzandi ekaniga shubha yo'q, osmon ham uni sevib qolib, sarson bo'lib tentiramoqda. Farishtalar esa uni maqtashyapti. Ammo ular ichida eng munosibi bizning lirik qahramonimizdir. U ishqni osmon jomiga quyib bersalar ham kam deb aytadi. Bu ishq mayiga chanqog'i qonmaydi. Ishqqa begona bo'lganlar kelib, qaytarsalar ham yo'lida sobit turadi. Ishqdan bebahra shayxlarni riyosi uchun tanqid qiladi, ana shu kabi shayxlarga karomat beringlar, menga esa fano kosasini to'ldirib may uzatinglar deya talab qo'yadi.

Biz arabiy misrali ikki g'azalni kontekstual tahlil etdik. Tadqiqotimizning yarmiga yetdik. Endi tahlilning ikkinchi qismini boshlaymiz. Biz bu matni kontekstini undan avval o'rgangan matn kontekstiga qanday bog'laymiz? Keling, buning uchun ular kontekstlar orasidagi umumiy jihatlarni topamiz: ikkala kontekstda ham o'z holini izhor etayotgan odam bir kishiga o'xshaydi, birinchi kontekstda Yor, jom, may, zohid haqida so'z borgan bo'lsa, bunisida Yorning go'zalligi vasf etilmoqda, ishq mayi tilga olinmoqda, oshiqning ishqqa bo'lgan sadoqati zohir bo'lmoqda, zohid bilan fe'li o'xshash shayx tilga olingan. Zohid

avvalgi kontekstda may va jomni rad etgan bo'lsa, bu yerda shayx mana riyo bilan mashg'ul, ustiga ustak u karomat xohlaydi, ikkala kontekstda ham lirik qahramon may ichishni istaydi, ikkalasi ham tashna.

Eng qiziq jihati, "G'aroyib us-sig'ar" devonida "Alif" bilan tugallangan ilk g'azalning birinchi misrasi arab tilida bo'lgani kabi shu harf bilan yakunlanuvchi so'nggi g'azalning oxirgi misrasi ham arab tilidadir. Birinchi kontekstdagi ilk misra "Kosadagi quyoshdan hidoyat nurlari porladi" deb xabar berib, Azal Soqiysining tashnalarga vahdat mayini ichinglar degan marhamatidan ogoh etsa, bu kontekstda ichishni istagan tashna tashnaligi bir osmon may bilan qonmasligini aytgan holda fano kosasidan bizga may qani deb talab etmoqda.

Kontekstlar va ularning barcha qismlari o'zaro bog'liq ekanini tushunish qiyin emas. Hozirgi tasavvur shuki, matn konteksti o'z ichida boshqa bir olam kontekstini saqlab turibdi. U kontekstda biz fidoyi, Yor chehrasini ko'rishga talabgor oshiqni ko'ramiz.

Muhim masala shuki, birinchi kontekstda tilga olingan, aksi ko'ngil jomidagi mayda jilva qiladigan Yor va ikkinchi kontekstdagi sevgili o'rtasida aloqadorlik bormi savoldir. Ammo biz hali bu masalada aniq xulosa bera olmaymiz. Buning uchun kontekstual tadqiqni davom ettirmog'imiz kerak. Har bir talqin va xulosa matnlar kontekstidan olinishi lozim.

Maqolamiz maqsadi Alisher Navoiyning arabiy misrali g'azallari tadqiqiga bag'ishlangan ekan, "G'aroyib us-sig'ar"dagi oxirgi shunday matnni o'rganishga tutinamiz.

Maqsad vodiysidagi maqsud

Bu g'azal o'n bir baytli bo'lib, biz o'rgangan ikki matndan hajman yirik. Uning matni bu:

باشىم يوز قاتلا اورسام ىر كا هجرىنك دىن منكا نى سود	قاشىنك محرابى نى وصل اهلى اىتمىش قبل مقصود
اوى اىچره اوت سالىب وه مشكل اىرمىش آسراماغ لىغ دود	اىچىم دا عشق دىن يوز برق و دم اورماق قا زهرم يوق
ياغارى مغور دىك اشكىم چون بولور لعلىنك شراب آلود	ىادا تاشى غه قان ىكچا ىاغىن ىاغقان دىك اى ساقى
درم بىرله كدا نى اىله كىم قىلغاي كىشى خشنود	چو قويدونك داغ تىندوردونك كونكول نى دردىنك اىستار دىن
مناسب دور بو تاش لار عقل اىشىكىن قىلغالى مسدود	جنون بو بولسا كىم ىاغدى پرى وش طفل لار تاشى
سىنىنك حسونك مىنىنك عشقىم دا نقصان بولمادى موجود	توكولدى كل فغان بس قىلدى بلبل شكر كىم بارى
قضا كلمىخ لار قاقتى قىلىب كردون نى قىراندود	تون و انجوم دىما دوران غه راحت قىلماسون دىب مىل

منكا كورساتماسانك ىول نىلاىن قاي سارى دور بىهېود	خرابات و مناجات اهلى نىنك مطلوبى سىن دور سىن
ذَهَبْنَا وَادَى الْمُقْصَدِ وَجَدْنَا مَا هُوَ الْمُقْصُودُ	نوايى كعبه ذكرىن قوى كه بىز دىر فنا اىستاب

1-kontekstning qismlari: qosh, mehrob, vasl ahli, maqsud, bosh, yer, hajr, sud.

Kontekst xitob va izhor ustiga qurilgan: ey yor, Sening qoshingni visol ahli o'zi uchun mehrob qilibdi, ya'ni vaslingga yetganlar qoshingga qarab sajda etmoqdalar. Men esa hajring qo'lidaman, visolingga yetganim yo'q, boshimni bu qayg'u sababli yerga yuz marta urganimdan foyda bormi?!

Mehrob duolar va ibodatlar ijobati uchun bir ramz, oshiq mehrobga yetib bormagan, uning boshqa yerlarda boshini yerga urgani foydasiz ko'rinmoqda.

2-kontekstning qismlari: ich, yuz barq, dam, zahra, uy, o't, dud.

Kontekst bu: oshiqning ichida ishqning yuzta yashin, chaqmog'i bor, ammo bir marta oh deyishga jur'at etmaydi, ammo uy ichiga o't yoqib qo'ygach, unda tutunni asrab turish mumkinmi?! Tabiiyki, bu imkonsiz, demak, oshiq ishq alangasini bildirmayman deb tirishgani bilan u oh chekadi, ohi esa, balki osmonlarga yetadi.

3-kontekstning qismlari: yada toshi, qon, yog'in, soqiy, yomg'ir, ashq, la'li sharobolud.

Kontekstda yada toshi paydo bo'ldi. Yada toshi yomg'ir yog'dirish uchun o'rta asrlarda foydalanilgan. Lirik qahramon aytadiki, yada toshiga qon tegizilsa, yog'in yog'ishni boshlaganidek, sening la'l kabi labing sharobdan qizarishi bilan ko'zimdan yomg'ir kabi yosh yog'adi.

Bu yerda yorning labi yada toshiga, sharob esa qonga qiyoslanmoqda. Yada toshi bilan yomg'ir yog'dirishda sehr amaliyoti bo'lganidek, sevgilining labi qizg'ish tus olishi va oshiqning ko'zyoshi o'rtasidagi bog'lanish ham sehr bilan bo'lgandek tuyuladi.

Albatta, yorning labi sharobdan rang olishi uchun u sharob ichishi kerak. Yolg'iz holda sharob ichsa, uni oshiq bilmaydi, demak, sevgili bazm davrasida may ichadi. Boshqalar unga hamroh bo'ladi. Bu holda rashk va ilojisizlik oshiqni zaif holga tushiradi hamda u yig'lashni boshlaydi.

4-kontekstning qismlari: ko'ngil, dog', dard, diram, gado.

Dog' – kuyishdan qoladigan izdir. Kontekstga ko'ra, sevgili ko'ngil ichiga dog' solgan, demak, ko'ngilni qattiq kuydirgan. Bu kuyish yorning begonalar davrasida mayxo'rlik qilganining hosili bo'lsa kerak. Dog'ning azobi shu qadar achchiq bo'lganki, oshiq yorning dardini so'ray olmay qolgan. Chunki u shu choqqacha yorning dardini istardi. Ammo xafa emas, yorning bu ishini lutf deya qabul etyapti. Shu sababli, gadoga dirham berib xushnud etganlaridek, qalbimni kuydirib, meni ham xushnud aylading deydi. Bu o'rinda kuyish izi dirham o'xshatilyapti. Demak, oshiq sevgili raqiblar davrasida aynan uni kuydirish uchun sharob ichganiga amin, bu esa uni behad shodlantirgan.



5-kontekstning qismlari: junun, parivash tifflar, tosh, aql eshigi.

Kontekstga ko‘ra, oshiqning bu holini ko‘rganlar unga jununlik sifatini berishgan. Shu bois, u junun shu bo‘lsa, demak, boshimga parivash bolalarning toshi yog‘di deb xulosa qiladi. Junun jin yoki parilar olamini ko‘rishdir. Inson o‘zini boshqara olmay jin va parilar bilan suhbatni boshlab, ularning amrlariga itoat qilsa, odamlar uni majnun deb ataydilar.

Kontekstda lirik qahramon hech kim bilan ishi bo‘lmay, o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolgan bo‘lsa kerakki, uni majnun deyishgan. Pari kabi bolalar toshi boshimga yog‘ildi der ekan, lirik qahramon bu toshlar aql eshigini to‘siq qo‘yishini istaydi.

6-kontekstning qismlari: gul, bulbul, fig‘on, ishq, husn.

Kontekstga ko‘ra, gul xazon bo‘lib to‘kilishi hamon bulbul unga muhabbat izhorini, fig‘onini to‘xtatdi. Bulbulning sevgisi gul husniga bog‘langan edi, husnning zavoli uning ishqini ham o‘ldirdi. Lirik qahramon bu holni kuzatib, o‘zining ishq va yorning husnida nuqson bo‘lmagani uchun shukurlar qiladi.

Ma‘lum bo‘ladiki, oshiqning ishq o‘ziga bog‘liq emas, bu qadar masalasidir, o‘ziga bog‘liq bo‘lsa, ishqida sobit tura olardi, lekin qadarda uning ishq benuqson yozilgani bois u vafo shartlarini buzmayapti, buning uchun shodlanmoqda.

7-kontekstning qismlari: tun, anjum, davron, rohat, qazo, gulmix, gardun.

Kontekst juda katta kengliklarni qamrab olyapti. Avvalo, qazoning nomi zikr etilmoqda. Kontekstning asosiy nuqtasi u. Qazo – hukmdir. “Muntaxab ul-lug‘ot” kitobida qazo o‘lim, hukm qilish deb tushuntirilgan. Qazo – Allohning lavhi mahfuzga yozib qo‘ygan xabarlaridir. Parvardigor g‘aybu zohirda bo‘ladigan har hodisani qalamga buyurib yozdirgan va bu bitiklarni lavhi mahfuzda saqlab qo‘ygan. Bu xabarlar voqelikda amalga osharkan, u qadar yoki taqdir deyiladi. Olamdagi hech ish qazodan tashqari sodir bo‘lmaydi.

Biz ko‘rayotgan kontekstda qazo qat‘iy ijrochi, beshafqat hukmdordek namoyon bo‘lyapti: u davronga rohat mayl qilmasin deya osmonga gulmix qoqib chiqqan va shunda to‘kilgan qiyrandud (qora qurum) olamni qoplab, qorong‘ulik cho‘kkan, qoqilgan gulmixlar esa yaltirib ko‘rinib qolgan. Adashib bu qorong‘ulikning nomi tun, samoda yarqirab turgan narsalar yulduzlardir demaslik kerak.

Davrondan murod zamon va dunyodir. Qazo bu dunyo va dunyoni qurshab turgan Vaqt insonlarga komil saodat ato etishini istamaydi, bu ikkisidan odamzod rohat ko‘rmasligi kerak. Hatto tun va yulduzlardan ham bahra olmasin – qazo shuni istaydi.

Bu kontekst o‘zidan avvalgisiga juda nozik ip bilan bog‘langan: to‘kilib ketgan gul va kuylashni to‘xtatgan bulbul qazoning qurbonlaridir; qolaversa, ishq va aslo davo topmaydigan hijron azobi ham qazoning amrlaridir.

8-kontekstning qismlari: xarobot va munojot ahli, matlab, yo‘l.

Bu kontekstda lirik qahramon iltijo qiluvchi, yalinuvchi qiyofada namoyon bo‘ladi. U o‘z Muxotobiga xarobot va munojot ahlining matlabi deya ta‘rif beradi. Demak, olamda munojot qiluvchilar ham, xarobotni makon tutib dunyodan yuz o‘giranlar ham aynan Uni talab qiladilar, Uni istaydilar. Bu, shubhasiz, Parvardigordir. Lirik qahramon Parvardigor yo‘l ko‘rsatmasa, qay sari borishni, qadam bosishni ham bilmaydi.

9-kontekstning qismlari: Navoiy, Ka'ba, dayri fano, vodiysi maqsad, maqsud.

Matnning so'nggi kontekstida lirik qahramon o'ziga aytadiki, Ka'bani zikr qilaverma, biz fano dayrini istadik va maqsad vodiysiga borib, maqsudimizni topdik.

"Maqsad vodiysiga bordik va maqsudimizni topdik" jumlasini arab tilida kelgan.

G'azal matnini biz mana shunday kontekstual birliklarga ajratdik, har birining ichini ko'rib chiqishga harakat qildik. Endi bu qismlarni birlashtirib, o'zaro bir-birini izohlab, to'ldiradigan o'rinlariga diqqat qaratamiz.

Bu kontekstda lirik qahramonning shunday xususiyat va sifatleri namoyon bo'lgan: u ma'lum maqomlar kasb etgani seziladi. O'z holatini chuqur idrok qilmoqda. Ishq va uning sababidan xabardor. Ishqdan murod nima ekanini biladi. U fano deb atalgan vodiysi maqsudiga yetishtirajak manzil ekaniga amin. Ya'ni lirik qahramon ma'nan yuksalgan inson. U Yorga oshiq. Biroq yorga oshiq faqat u emas, boshqalar ham maftun. Boshqalar, hatto yor vasliga erishishgan. Yorga yetishganlar uning qoshini mehrob qilib olishgan. Oshiqning ichida ishq olov bo'lib yonadi, yor uning rashkini keltirib boshqalar bilan shakarguftorlik qiladi, ishq olovi oshiq qalbini kuydiradi, lekin oshiq bu azoblardan aslo zarda bo'lmagan, aslo bezimagan, aksincha, u o'z muhabbatiga samimiy tarzda sodiq.

Boshqalarning ishqini zavob bo'ladi. Boshqalarning muhabbati mavsumiy, lekin oshiqning ishqini sobit. Qazo hech narsani ayamaydi, hech kimga zarra qadar rohat va shodlikni ravo ko'rmaydi, shunday ekan, oshiq ham o'z ishqini uchun qazodan muruvvat kutmagani yaxshi, aksincha, har qanday balolarga sabr qilib, ishqdan keladigan ofatlarni sevgi bilan qabul etmog'i lozim. Lekin ulkan xatar bor. Qazoning zulmiga ne-ne ishq muhabbatlar dosh bermagan ekan, ojiz banda bo'lgan bizning lirik qahramonimiz ham adashib qolishi mumkin. Shu bois u ishq muhabbatda yo'l ko'rsatishini so'rab Parvardigorga yolvoradi. Ana shu nuqtada oshiqning e'tiqodi hamda muhabbatga bo'lgan sodiqligi yanada oydin ko'rinadi. U xato yo'lga og'ib ketishdan qo'rqadi. U asl haqiqatni, haqni, mangu va zavolsiz ishqni, poklikni xohlaydi.

Bu kontekstda raqib ko'rinmaydi. Oshiqqa qarshilik qiladigan kimdir yo'q. Lekin Ka'baga zikrini qo'y deya o'ziga xitob qilarkan, bu o'rinda Ka'baga da'vat qiluvchi birov borligini taxmin qilish mumkin. Aslida, Ka'ba musulmonni murodiga yetkazmog'i kerak, ammo oshiq nima uchun uni rad qilyapti? Chunki Ka'baga boryapman deb insonda avvalgi kontekstda zikr qilingan o'zini ko'rsatish illati zuhur qilish ehtimoli katta, shu boisdan fano dayriga borish kerak.

Fano – yo'qlik, yo'qlik vodiysiga kirmoqdir va maqsud shu yerdan topiladi. Maqsud nima? Shunda birinchi kontekstdagi chehrai maqsud kontekstual birligini eslaymiz. Maqsud – chehra. Yorning jamoli.

Arabiy misra g'azalda kontekstiga singib, uning ajralmas tana a'zosidek namoyon bo'lmoqda. U matnning umumiy ritmiga mos ravishda yangrab, asl g'oyaning yanada yorqin va ta'sirchan ifodasiga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi tahlil va tadqiqatlar natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkin:

1. Alisher Navoiy, asosan, turk tilida ijod qilgan bo'lsa-da, oyatlar, hadislar va tasavvuf murshidlarining hikmatlari arab tilida yangragani uchun arab tiliga yuksak ehtirom saqlagan, arab tilini chuqur o'rgangan, arab tilidan asarlar tarjima



qilgan, o'z asarlarida Qur'on oyatlari, hadis va hikmatlarni arab tilida istifoda qilgan, ijodida etimologiyasi arab tiliga bog'langan katta miqdordagi so'zlarni qo'llagan, bir so'z bilan aytganda, buyuk mutafakkir arab tili bilimdoni bo'lib, uning arab tiliga hurmati e'tiqodiy masala deb tushuniladi.

2. Alisher Navoiy arab adabiyoti va she'riyatidan ilhomlangan va ayrim parchalarni tarjima qilib, o'z asarlariga singdirib yuborgan, bunga “Lison ut-tayr” dostonidagi Asma'iy hikoyatini misol qilish mumkin.

3. Alisher Navoiy bir misrasi turkcha, bir misrasi arabcha bo'lgan shiru shakar she'rlar ham yozgan, xususan, ayrim g'azallarida o'zi ijod qilgan arabiy misralar ham uchraydi.

4. Kontekstual tahlil o'rganilayotgan muammoni qismlarga bo'lib tadqiq qilishga ixtisoslashgan. Buning uchun avval muammoning chegarasi aniqlab olinadi. Tadqiqotchi o'z ob'ektidan nimalarni izlayotganini belgilab chiqadi. So'ng ob'ekt turli parchalarga ajratiladi. Bu parchalarning ham chegarasi aniq bo'lishi lozim. Mazkur chegaralashga kontekstni kontekstual birliklar (qismlar)ga bo'lib chiqish bilan erishiladi. Bunda holat, harakat yoki harakatning foili kontekstning markazi vazifasini bajaradi. Butun kontekst uning atrofida jamlanib muayyan manzara kasb etadi yoki xabarni yuzaga chiqaradi. Kontekstual tahlil o'rganilayotgan muammo ustida ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar ma'lumotlaridan foydalanish uchun ochiq, shuningdek, bu tahlil metodi lug'atlarga murojaat qilishni rad qilmaydi. Alisher Navoiy g'azallarini, umuman, shoir qalamiga mansub matnlarni kontekstual tahlilga muvofiq o'rganish u aytgan so'zlar haqiqatini to'g'ri tushunishga yetaklaydigan yo'llardan biri deb bilamiz.

5. “G'aroyib us-sig'ar” devonida uchta arabiy misrali g'azal borligi ma'lum bo'ldi. “Xazoyin ul-maoniy”ning “fotiha”si sanalgan g'azalning ham arabcha boshlanishi bu o'rinda arab tilining Alisher Navoiy zehniyati va tafakkuridagi ahamiyatini anglashda muhim sanaladi. “G'aroyib us-sig'ar”dagi arabiy misrali g'azallarni kontekstual tahlil metodi asosida o'rganish asnosida quyidagilar ko'rindi:

a) g'azallarning barchasida lirik qahramon yashashdan maqsadini to'liq tushungan, maqsadga yetkazuvchi ishqni talab qilgan, o'z yo'lida sobit, ishq bobida keladigan har qanday mashaqqatlarga toqat qiluvchi, balki bu mashaqqatlarni baxt deb ishonadigan insondir;

b) g'azallardagi Yor timsoli ba'zan inson bo'lib, u behad go'zal va boshqalarni ham o'ziga maftun etuvchi sifatlarga ega;

c) g'azallardagi soqiy va mug'bacha oshiqni – lirik qahramonni ishqqa yetaklovchi, ishqdan saboq va dars beruvchi timsollardir. Ular makon tutgan dayr esa oshiqning maskani, samimiyat va xolislik, bechorahollik va sabrlilik tamsili hisoblanadi;

d) may va jom istioralari kontekstga ko'ra turli ma'nolarda qo'llanadi, may ba'zi o'rinlarda vahdat, ba'zan ishq ma'nosini tashiydi; jom esa ko'ngilni, soqiydan ishq sabog'ini olish mazmunini ifodalaydi;

e) riyokor zohid va shayxlar asl haqiqatni tushunmaydigan, ishq yo'lidan qaytaruvchilar bo'lib, oshiq va ular o'rtasida doimiy ziddiyat mavjud;

f) ishqni uyg'otgan omil – husn, uning mavjudligini bildiruvchi belgi – hijron, ishqning maqsadi – visol, visol esa Yorning jamolini ko'rishdir;

g) Parvardigor oshiqning ishlarini o'nglaydigan, unga yo'l ko'rsatadigan hodiydir, oshiqning ishq bilan bog'liq holat va maqomlari Xudoning qazo va qadari orasida kechadi;

h) oshiqning barcha maqsadi fano bo'lish bilan hosil bo'ladi, maqsaddan esa dunyo naqshining zangi to'sadi, bu zang ko'ngil jomini xarob etib, Yorning aksini ko'rishdan mahrum qiladi.

Tadqiq etganimiz g'azallar matnidan mana shunday umumiy tasavvur hosil qildik. Ammo bu hali so'nggi nuqta degani emas. Hali bir qancha savollar ochiq qolmoqda – Yor kim? Chehrai maqsud nima? Umuman, maqsud nima? Fanoning mohiyati qanday? Inson nima uchun oshiq bo'lishi kerak? Ishq amr etilgan ishmi? Modomiki, Alisher Navoiy g'azallaridagi muhabbat Xudoga nisbatan izhor sanalmasa, insonga bu qadar kuchli muhabbat qilishning sababi qaerda? Qanday qilib insonga bo'lgan muhabbat va Xudoga bo'lgan itoatni bir nuqtada jamlash mumkin? G'azal matnlarida insoniy muhabbat Xudoga bo'lgan ibodat bilan tenglashib qolmayaptimi? Orada qanday mutanosiblik bor?

Biz bu savollarga uchta g'azal konteksti va ularning tahlili asosida ishonchli javob bera olmaymiz, balki aniq va ravshan xulosa uchun tahlilni Alisher Navoiy devonlari konteksti bo'ylab olib borishimiz kerak. Xususan, avval "G'aroyib us-sig'ar" konteksti to'liq o'rganilgach, keyin tadqiq chegarasini kengaytirish mumkin. Shu tariqa Alisher Navoiy matnlari konteksti mutafakkirning asl maqsadi, u nazarda tutgan haqiqatni bizga taqdim qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy kulliyoti. Revan-808. Faksimil nashr. Nashrga tayyorlovchi Gunay Kut. – Istanbul: Qo'lyozmalarni saqlash boshqonligi, 2020. – 1677 b.

2. Alisher Navoiy kulliyoti. Ikki jild. Faksimil nusxa. Parij: Fransuz Milliy kutubxonasi. Birinchi jild: Turc.Suppl.316 – <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b84271998/f1n968.pdf> Ikkinchi jild: Turc.Suppl.316 – <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b8436331b/f1n836.pdf>.

3. Adabiyotshunoslik lug'ati / Tuzuvchilar: D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheralieva. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 476 b.

4. Al-Asma'iy. Manba: <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Al-Asmai&oldid=111956812> Foydalanilgan sana: 02. 12. 2023.

5. Alisher Navoiy asarlari lug'ati: Muntaxab ul-lug'ot. Zubd ul-lug'ot / Muhammad Rizobek Xoksor. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 416 b.

6. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati / To'rt jildli. J.:1. – Toshkent, Fan, 1983. – 656 b.

7. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at / Ikki jildlik. J.: 1. Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016. – 536 b.

8. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at / Ikki jildlik. J.: 2. Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.



9. Asmaiy bilan baqqol / To'tiyo Abdulqahhor qizi tarjiması. – Manba: <https://muslimaat.uz/maqola/35875>
10. Ahmad Muhammad Tursun, Muhammad Sharif Juman. Islom dini. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.
11. Istiqlol davri navoiyshunosligi / 30 jildlik. J.: 28. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislar. – Toshkent: TAMADDUN, 2021. – 480 b.
12. Istiqlol davri navoiyshunosligi / 30 jildlik. J.: 21. Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa" sida xronotop poetikasi. – Toshkent: TAMADDUN, 2021. – 280 b.
13. Qozixo'ja A. Gar ortiq so'z dedim... – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – 296 b.
14. Navoiyshunoslik: darslik / Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.
15. Nishonov A. H. Fonetiko-morfologicheskii i leksiko-semanticheskii analiz arabizmov yazyka Navoi / avtoreferat kand... diss... filol. nauk. – Tashkent, 1990. – 19 str.
16. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 112 b.
17. Svenson L. Kontekstual tahlil: tadqiqot metodologiyasi va yondashuv / Shvesiya: Gottenburg universiteti, 2021. – 210 b. (Svensson L. Contextual analysis: a research methodology and a research approach / Sweden: Universitatis Gothoburgensis, 2021. – 210 p.) Internetdagi ochiq manba: <http://hdl.handle.net/2077/68413> Foydalanilgan sana: 16. 11. 2023.
18. Sirojiddinov Sh. Amir Alisher. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – 200 b.
19. Сулейманов С. Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навоий / Дисс. соискание ученой степени доктора филологических наук. – Тошкент – Москва, 1956 – 1961. – 385 с.
20. Tilshunoslikning metodologik masalalari: monografiya / Ne'matov H., Mengliev B, Hamroeva Sh. – Toshkent: GlobeEdit, 2020. – 114 b.
21. Ustozlar xizmati – buyuk sharaf / G'ulomiddin Xolboev. – Manba: <http://old.muslim.uz/index.php/ar/maqolalar/item/10865-ustozlar-khizmati-buyuk-sharaf>. Foydalanilgan sana: 02. 12. 2013.
22. Hasanov S. Alisher Navoiyning "Sab'atu abhur" asari. – Toshkent: Fan, 1981. – 102 b.
23. Шарқовий А. Тонги суҳбатлар / Таржимон: Абдулқодир Самарқандий. – Тошкент: TAVFIQNASHR, 2023. – 248 б.
24. Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара: Аксag, 2021. – 468 б.
25. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги: монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 114 б.
26. 350 ص 2016 ادهم شرقاوي حديث الاصباح دولة الكويت دار كلمات كۆчириб олиш учун очик манба: <https://foulabook.com/ar/book/حديث-الصباح-تحميل-pdf> Фойдаланилган сана: 01. 12. 2023.
27. https://esatis.yek.gov.tr/urun/kulliyat-i-nevayi_738.aspx Фойдаланилган сана: 02. 12. 2023.
28. https://esatis.yek.gov.tr/urun/kulliyat-i-nevayi_738.aspx Фойдаланилган сана: 02. 12. 2023.